

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2021 йил 9-сон



Бош мұхаррір: Наманған давлат университети ректори С.Т.Түргұнов

Масъұл мұхаррір: Илмий ишлар ва инновациялар бүйіч проректор М.Р.Қодирхонов

Масъұл мұхаррір ұринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиги Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аззамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тұхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов. ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад. С.Раширова, акад. А.Тұраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф. Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц. А.Баташов, б.ф.н.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Кишлоқ хўжалиги фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: - акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д., проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: - и.ф.д., проф. Н.Махмудов, и.ф.д., проф. О.Одилов.

Фалсафа фанлари: - акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: - акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф. С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуков, фил.ф.д., проф. Х.Усманова. фил.ф.д., проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н., доц. М.Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф. А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф. Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: - б.ф.д. Ф.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари - п.ф.д., проф. З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник мұхаррірлар: **Н.Юсупов.**

Таҳририят манзили: Наманған шаҳри, Уйчи қўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Уибу журнал 2019 йилдан бошлиб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиши тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси хамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 14.09.2021 йилдаги кенгайтирилган иигилишида мұхокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишига рухсат этилган (**Баённома № 9**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021



3. Saydaliev, I. N. (2020). The Essence Of The Organization Of Synergetic Integration Of Science, Education, Industry In Uzbekistan. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(11), 137-141.
4. Saydaliev, I. N. (2020). The essence of the content of synergetic integration of higher education and production. In *International scientific-practical conference: Andijan Machine-Building Institute* (pp. 278-287).
5. Алматаев, Т. О., Сайдалиев, И. Н., Турсунов, О. А., & Касимов, И. С. К ВОПРОСУ СИНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ПРОИЗВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. *SECTION OF BIOLOGICAL AND MEDICAL SCIENCES*, 20.
6. Nurmamatovich, S. I. (2020). THE IMPORTANCE AND PROSPECTS OF SYNERGETIC INTEGRATION OF HIGHER EDUCATION AND INDUSTRY IN TRAINING MODERN ENGINEERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(12).
7. Исмаилова З.К., Химматалиев Д.О., Байбаева М.Х. Основные вопросы интеграции образования и производства и пути их решения. // Педагогика: традиции и инновации: материалы VI Междунар. науч. конф. – Челябинск: Два комсомольца, 2015. – С. 216-217
8. Бородавкин В. А., Щеглов Д. К., Охочинский М. Н., Русина А. А. Базовая кафедра предприятия в структуре высшего учебного заведения. // ИННОВАЦИИ № 9 (203), 2015. – С. 93-97
9. Kosimov, K. Z. Saydaliev I. Kompozitsionnye poroshkovye materialy dlya uprochneniya poverkhnosti detaley mashin [Composite Powder Materials for hardening of the surface of machine parts]. *Sbornik materialov mezhdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii*, 139-143.
10. Сайдалиев, И. Н. (2015). Осветление плодовоягодных соков обработкой ультразвуком. *Вестник Курганского государственного университета*, (1 (35)).
11. Сайдалиев, И. Н. (2015). Осветление плодовоягодных соков обработкой ультразвуком. *Вестник Курганского государственного университета*, (1 (35)).

. ONA TILI TA'LIMIGA ANTROPOSENTRIK YONDASHUV TAMOYILLARI ASOSIDA YONDASHISH

Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna

Namangan davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Qisqacha annotatsiya: maqolada davr tomonidan ona tili ta'limiga qo'yilayotgan yangi talablar asosida talabalarni bugungi kunda jahonning qator til ilmi ta'limida mustaqil ilmiy paradigma sifatida shakllanib ulgurgan, antroposentrik tilshunoslik yo'nalishlari bilan tanishtirish asnosida tilshunoslikda qo'lga kiritilgan eng so'nggi yutuqlar, til hodisalarini inson omili bilan bog'lab o'rghanish tamoyilining mohiyati, afzalliklari yoritiladi.

Kalit so'zlar: yangi talablar, antroposentrik yondashuv, til shaxsi, til hodisalarini inson omili bilan bog'lab o'rghanish tamoyili, antroposentrik yondashuv mohiyati, afzalliklari.

ПОДХОД К АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОМУ ПОДХОДУ К ОБРАЗОВАНИЮ РОДНОГО ЯЗЫКА

Собирова Махбуба Юсупдженовна

Доцент Наманганского государственного университета, кандидат пед.наук



Краткая annotatsiya: в статье рассматриваются новые требования к обучению на родном языке по периодам, которые сформировали студентов сегодня как самостоятельную научную парадигму в преподавании лингвистики в ряде стран мира, во время введения в направления антропоцентрической лингвистики, последние достижения лингвистики освещаются сущность и преимущества принципа изучения явлений языка во взаимосвязи с человеческим фактором.

Ключевые слова: новые требования, антропоцентрический подход, языковая личность, принцип изучения языковых явлений применительно к человеческому фактору, сущность и преимущества антропоцентрического подхода

ANTHROPOCENTRIC APPROACH TO THE EDUCATION OF THE NATIVE LANGUAGE

Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna

Associate Professor of Namangan State University,

Candidate of Pedagogical Sciences

Brief annotation: The article discusses the new requirements for mother tongue education by the period, which have formed students today as an independent scientific paradigm in the teaching of linguistics around the world, during the introduction to the trends of anthropocentric linguistics, the latest achievements in linguistics, the essence and advantages of the principle of studying the phenomena of language in connection with the human factor are highlighted.

Keywords: new requirements, anthropocentric approach, language personality, the principle of studying language phenomena in relation to the human factor, the essence and advantages of the anthropocentric approach

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29- oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi[2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i

"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi[3], 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"[4]gi farmonlari, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi[5] farmon hamda boshqa ko'plab qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta'lif jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lif jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lif xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, antroposentrik yondashuv tamoyillari va texnologiyalarini amaliyatga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Antroposentrik yondashuv tamoyillari va texnologiyalari oliygohlarda ona tili ta'lidan saboq beruvchi professor-o'qituvchilari va talabalari oldiga davr tomonidan qo'yilayotgan yangi talablar asosida ulami bugungi kunda jahonning qator til ilmi ta'limida mustaqil ilmiy paradigma sifatida shakllanib ulgurgan, antroposentrik tilshunoslik yo'nalishlari bilan



tanishtirish asnosida tilshunoslikda qo'fga kiritilgan eng so'nggi yutuqlar, til hodisalarini inson omili bilan bog'lab o'rghanish tamoyilining mohiyati, afzalliklari haqida ma'lumot beradi.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichida til tizimi va inson lisoniy faoliyatini mexanizmini til egasi bo'lgan shaxs, uning lisoniy ongi va tafakkuri, ruhiyati; nutqiy vaziyat, ijtimoiy muhit, xalq madaniyati kabi omillar bilan bog'liqlikda o'rghanishga e'tibor kuchaymoqda. XX asr so'ngida tilshunoslik ilmiy paradigmasi «til shaxsi» kategoriyasining kiritilishi bugungi kunda kognitiv lingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika kabi inson fenomeni muammolari bilan shug'ullanuvchi lingvistik yo'naliishlarning shakllanishiga olib keldi. Tilni o'rghanishga bu jihatdan yondashuv jahon tilshunosligida antroposentrism g'oyalarining keng yoyilishiga turtki berdi.

Antroposentrik paradigmating shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratdi. Hozirgi vaqtida tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antroposentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi.

Bugungi kunda lisoniy faoliyat bajaruvchisi bo'lgan shaxs omilini o'rghanish tilshunoslik sohalari – psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika kabi sohalarda chuqurlashib bormoqda. Ayni vaqtida, tilga antroposentrik yondashuv ushbu sohalarning eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda. Ko'plab tadqiqotchilarining e'tirof etishicha, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antroposentrik paradigmating yetakchi yo'naliishlari hisoblanadi.

Ilmiy paradigma (yunoncha "misol, namuna") fan obyektini, uning muayyan davrda hokim bo'lgan nazariy tushunchalarini o'rghanishga yo'naltirilgan va shu asosda fanning turli bo'limlarida o'xshash bo'lgan, o'zaro bog'langan muayyan tadqiqot metodikalarining majmuyidir. Ilmiy metodologiya va ilmiy metodlardan farqli o'laroq, aniq tarixiy xususiyatga va ijtimoiy-madaniy tarqalish chegarasiga ega. Mazkur termin 1962-yilda amerikalik faylasuf va tarixchi T. Kunning mashhur "Ilmiy inqiloblar strukturasi" asarida muomalaga kiritilgan.

Antroposentrik paradigma bu tadqiqotchilar qiziqishlarining obyektdan subyektga o'zgarishi, yo'naltirilishi, ya'ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishidir. I. A. Boduen de Kurtene ta'biri bilan aytganda, "til faqat til jamoasini tarkib toptirgan individual miyalarda, ko'ngillarda va individlarning psixikasida mavjud bo'ladi".

Taniqli tilshunoslар V.A.Maslova[6], N.Mahmudov[7]larning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtida tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antroposentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi.

Antroposentrism so'zi yunoncha *antropos* – odam hamda lotincha *centrum* – markaz ma'nosini bildiruvchi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan [8] termin dastlab qadimgi yunon falsafasining "Inson – koinot markazidir" degan g'oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo'llangan bo'lib, bu g'oya ayniqsa O'rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi. Antroposentrik paradigma tilni immanent tarzda, ya'ni o'z egasidan ayro holda tadqiq etishga antipozitivistik qarashlarning yuzaga kelishi natijasida shakllandı.



Prof. Sh.Safarov antroposentrik paradigmanning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: "Sistem- struktur paradigma o'zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmanning "atomistik", ya'ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo'lini tutdi. Sistem- struktur yo'nalihsining asosiy samarasи tilning tizimli hodisa e kanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmanning umumiy kamchiligi borligi ham ma'lum bo'ldi: bu yo'nalihslarda til o'z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo'qotish yo'lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo'ldi"[9].

Prof. N.Mahmudov esa tilshunoslikda antroposentrik paradigmanning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: "Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antroposentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning "inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi" degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta'kidlaganiday, inson aqlini insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi"[6].

Tilning antroposentrik g'oyasi zamonaviy tilshunoslikning asosini tashkil qiladi. Bugungi kunda lingvistik tahlilning maqsadi, til tizimlarining turli tavsifini shunchaki aniqlash bilan hisoblasha olmaydi. Til kishilik jamiyatida vujudga kelgan ko'p qirrali hodisa: u sistema va antisistema, faoliyat hamda ushbu faoliyatning mahsuli, ruh va moddiyat va h.k. Yu.S.Stepanov tilning murakkab mohiyatini yortish uchun uni bir necha obrazlar ko'rinishida taqdim etgan bo'lsa- da, ulardan hech biri tilning barcha qirralarini to'liq ochib berolmaydi: 1) til *individning tilidir*; 2) til - *til oilalari a'zosi*; 3) til – *struktura*; 4) til – *tizim*; 5) til – *tur va xususiyat*; 6) til – *kompyuter*; 7) til – *fikrlar makoni va "ruhning uyi"* (M. Xaydeger), ya'ni til *insonning murakkab kognitiv faoliyatidir*. XX asrning oxiriga kelib bularga yana bir ta'rif qo'shildi: til – *madaniyat mahsuli*, uning muhim tarkibiy qismi, yashashining sharti, madaniy kodlarning shakllanish omilidir.

Antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan inson dunyonи o'zini bilish, o'zining nazariy va amaliy faoliyati orqali taniydi. Masalan, hech qanday mavhum nazariya nima uchun olov hissi haqida o'ylaganda *sevgi olovi*, *yurak otashi*, *iliq do'stlik* va h.k. haqida gapirilishini izohlay olmaydi. Barcha narsalarning o'z o'lchovida anglash insonga uning ongida narsalarning antroposentrik tartibini ijod qilish huquqini beradi. Uni maishiy emas, balki ilmiy darajada tadqiq qilish mumkin bo'ladi. Insonning miyasida, ongida mavjud bo'lgan bu tartib uning ma'naviyatini, qadriyatlarini va xatti-harakati motivlarini belgilaydi. Bularning barchasini inson nutqini, xususan, uning eng ko'p qo'llaydigan ifodalarini tadqiq qilish orqali tushunish mumkin.

Tilshunoslikda antroposentrik tilshunoslik (yoki antroposentrik paradigma; neolingvistika) sohasining shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilining tadqiq etish bilan bog'liqdir. "Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi shu bilan izohlanadiki, tadqiqotchilarning diqqati "til qanday qurilgan" degan masaladan "til qay tarzda amal qiladi" degan masalaga ko'chdi. Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning egasi bo'lgan shaxs omili nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish kerak bo'ladi"[10].

Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o'rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi.



Ayrim tilshunoslarning fikricha, antroposentrik paradigma o'tgan asrda strukturalizm muvaffaqiyatlari natijasi sifatida yuzaga kelgan "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini butunlay chetga surib qo'ydi[11]. Bunda asosiy e'tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratildi.

Ilmiy paradigmaga "til egasi" kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda, shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashuvini taqozo etadi [12].

Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan til tizimini lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Tilga faqat semantik-sintaktik jihatdan bog'langan gaplar yig'indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan muloqot shakli, o'zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi.

Hozirgi zamonning eng muhim xususiyatlaridan biri – inson turmush tarzining barcha sohalariga ilmiy-texnika yutuqlarining tezkorlik bilan kirib, turmushning barcha jabhalari baynalminallashuviga kishilar faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini kuchaytirayotgan bo'lsa-da, o'z navbatida, odam uchun dahshatli xavf-xatarni ham vujudga keltirmoqda. Demak, u umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg'unlashtirish orqaligina vaziyatdan chiqa oladi.

Insoniylik g'oyasi o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat yetuk, har tomonlama kamolga yetgan, o'zida butun ijobiy, olıyanob fazilatlarni to'plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tili tizimi ham dunyo tilshunosligida yetakchi paradigmalardan biri hisoblangan antroposentrism asosida tadqiq etilishi lozim. Bu o'zbek tilshunosligi rivojini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishi bilan birga tilimizning jamiyat, madaniyat, milliy mentalitet va ruhiyat bilan uzviyligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Ona tili ta'limini antroposentrik yondashuv tamoyillari va texnologiyalari asosida o'qitish:
- til hodisalariga antroposentrik ilmiy paradigma tamoyillari asosida yondoshadi;
- til va tafakkur, til va madaniyat, til va jamiyat munosabati masalalarini tahlil qila olish ko'nikmasini hosil qiladi;
- matnni inson omilini hisobga olib tahlil qilish malakasi shakllanadi;
- lisoniy va nutqiy hodisalarni antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida lingvistik tahlil qilishni o'rghanadi.

Demak, ona tili ta'limini antroposentrik yondashuv tamoyillari va texnologiyalari asosida o'qitish orqali talabalar zamonaviy tilshunoslikning eng so'nggi yutuqlari va yangi yo'nalishlaridan xabardor bo'ladilar, jahon va o'zbek tilshunosligida til hodisalarini yangicha yondashuv asosida tadqiq etish borasida olib borilayotgan ilg'or tajribalar bilan tanishadilar, til birliklarini inson omili bilan bog'liq holda tahlil qilishga doir kasbiy layoqatga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni. 2020-yil 29-oktabr.



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
4. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. 2019- yil 21-oktabr.
5. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabr.
6. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Academia, 2001. – S. 17.
7. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5. – B. 3-16.
8. <http://ph.ras.ru//elib0215.html>: Novaya filosofskaya ensiklopediya.
9. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" , 2008. – B. 35.
10. Dorofeev Yu. Antroposentrizm v lingvistike i predmet kognitivnoy grammatiki // <http://www.nbuvv.sov.ya/portal/sog-gum/ls> 2008-17/ dorofeev/ pdf.
11. Vorkachev S.G. Lingvokulturologiya, yazыkovaya lichnost, konsept: Stanovlenie antropolicheskoy paradigmы v yazыkoznanii // Filologicheskie nauki. – 2001. – №1. – S. 64.
12. Sedov K.F. Diskurs i lichnost. // Filologicheskie nauki. – 2001. – №1.–S.5.



**МЕХАНИЗМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ
ИНФОРМАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ МАГИСТРАНТОВ
ТЕХНИЧЕСКИХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ**

Абдуллаева Озода Сафибуллаевна

Наманганский инженерно-строительный институт

доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Тел: 91 354 93 63, E-mail: aspirantka.030@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается моделирование процесса развития информационно-управленческих компетенций магистрантов технических высших образовательных учреждений как процессуальная система, составными частями которой являются: цель и стратегии моделирования, закономерности и принципы моделирования, объект моделирования, модель, технология применений модельных представлений в педагогической деятельности, результативность использования модели в педагогической деятельности.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, моделирование, мотивационные процессы, профессиональное образование, концептуальная модель.

**TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI MAGISTRALARINING AXBOROT VA
BOSHQARISH KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZIMI**

Abdullayeva Ozoda Safibullaevna

Namangan muxandislik-qurilish instituti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tel: 91 354 93 63, E-mail: aspirantka.030@gmail.com

Аннотация: Maqolada protsessual tizim sifatida texnik oliy o'quv yurtlari magistrantlarining axborot va boshqaruuv kompetentsiyalarini rivojlanirish jarayonini modellashtirish o'rganilgan. Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: modellashtirishning maqsadi va strategiyasi, modellashtirish qonuniyatları va tamoyillari, modellashtirish ob'ekti, model, pedagogik faoliyatda model namoyishlarini qo'llash texnologiyasi, modeldan pedagogik faoliyatda foydalanish samaradorligi.

Tayanch so'zlar: pedagogik faoliyat, modellashtirish, motivatsion jarayonlar, kasbiy ta'lif, kontseptual model.

**THE MECHANISM OF IMPROVING THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF
INFORMATION AND MANAGEMENT COMPETENCES OF MASTER'S OF TECHNICAL
HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Abdullaeva Ozoda Safibullaevna

Namangan Civil-Engineering Institute

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

Tel: 91 354 93 63, E-mail: aspirantka.030@gmail.com



89	Bolalarning maktabgacha tarbiya yoshida rivojlanishi Abdullayev O.Q	476
90	Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини инновацион-педагогик фаолиятга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш Амонова З.У	483
91	Бошланғич синф ўқувчиларида атроф-муҳитта ижобий муносабатни шакллантиришнинг ўзига хослиги Бованова У.А	487
92	Амалий санъатни ўқитишида “устоз-шогирд” анъанааларидан фойдаланишининг аҳамияти Восиева А.Т	497
93	Jismoniy tarbiya jarayonida talabalarning jismoniy rivojlanishi, funksonal holati va jismoniy tayyorgarligi dinamikasi Jabborov A.T.	502
94	Желания, требования и свободный выбор школьника Шаамирова Ю. К	507
95	Применение педагогических и информационных технологий в преподавании естественных наук Бердиева З. М	512
96	Maple tizimida o’zaro kesishmaydigan aylanalarga o’tkazilgan urinmani aniqlash Mirzakarimov E. M, Arziqulov Z.O	516
97	Китобдан яхши дўст топилмас Муминова Д.А	523
98	Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchisining geometrik shakllarni tasvirlash ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish (Qalamtasvir mashg’ulotlari misolida) Sharipjonov M.Sh	529
99	Бадминтончиларнинг зарба бериш сифатига таъсир этувчи омиллар самарадорлигини ўрганиш ва зарба техникасини шакллантириш Мухиддинова Ф.А	535
100	Профессиональная компетентность педагога Собирова Н.А, Джурбаева У.М	540
101	Роль наставничества в современном образовании Хайдаров С.Н	545
102	Oliy ta’lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini amalga oshirishda tayanch kafedralarni o’rni va ahamiyati Azimova Z.E, Saydaliyev I.N	550
103	Ona tili ta’limiga antroposentrik yondashuv tamoyillari asosida yondashish Sobirova M.Y	554
104	Механизм совершенствования процесса развития информационно- управленческих компетенций магистрантов технических высших образовательных учреждений Абдуллаева О.С	560
105	Халқ педагогикасининг таълим-тарбиядаги аҳамияти Султанова Ж. Б	567